



## OLIV TA'LIMNI ISHLAB CHIQRARISH BILAN INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**Karimova Mohinur**

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993032>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil  
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil  
Nashr qilindi: 31-May 2023 yil

### KEY WORDS

*Integratsiya; ta'lim; pedagog; texnologiya; rivojlanish; ilmfan; islohotlar; ishlab chiqarish.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada yurtimizdagi, Oliy ta'limdagi o'rganishlar haqida so'z borgan. Bundan tashqari ta'limning rivojlanishida o'qituvchi va o'quvchilarga yaratilib berilgan yangiliklar, yangiliklar haqida ma'lumotlar berilgan. Qolaversa, integratsiya, uning rivojlanishida olib borilayotgan amaliy harakatlar haqida batafsil yoritilib berilgan.*

Mamlakatimiz va xalqimiz hayotida keyingi besh yil hech o'ylab ko'rilmagan, xayolga keltirilmagan yangiliklarga boy bo'ldi. Aynan shu davrda mamlakatimiz iqtisodiyotida, madaniyati va ma'naviyatida, ijtimoiy-siyosiy hayotida, turmush tarzida, dunyoqarashiyu, tafakkurida demokratik o'zgarishlar yuz berdi. Umuman hamma sohada katta yuksalish, rivojlanish va ijobiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Bu besh yillikda demokratik qadriyatlar, fuqarolarning demokratik-huquqiy erkinliklari qaror topib, matbuot va so'z erkinligiga yo'l ochib berildi. Jamiyatga demokratik huquqiy va matbuot erkinligini berish har qanday davlat rahbaridan katta matonat va jasorat talab etadi. Shavkat Mirziyoyev o'zida ana shu matonat va jasoratni topa oldi. Bu xizmatlari bilan Prezidentimiz xarizmatik shaxs ekanini isbotladi hamda O'zbekiston tarixida demokratik prezident sifatida alohida joy oldi. Bular hammasi xalqimiz uchun haqiqiy ma'nodagi tuhfa bo'ldi. Buni aytishdan maqsadim — ta'lim erkinlikni sevadi.

Ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz ob'ro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimiz ta'limdagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilib, uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi. Ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish,

ma'naviy- ma'rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o'qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga joriy etishga katta e'tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, o'qituvchilar oyliyini oshirish va rag'batlantirib borish zarurligini ko'rsatdi, bu masalalarda katta ishlar amalga oshirildi.

Zamonaviy ilm-fan va ishlab chiqarish tomonidan ilgari surilgan barcha masalalarni ishonch bilan hal qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish uchun oliy o'quv yurtlarida barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Har qanday barqaror rivojlanayotgan jamiyatda xato-kamchilik bo'lgani kabi, bizda ham ular mavjud bo'lganini tan olish kerak. Yoshlarning oliy ta'lim olish va konstitutsion huquqlarini ro'yobga chiqarish imkoniyati ma'lum darajada cheklangan edi. Keyingi besh yilda o'tkazilgan Oliy ta'lim islohotlarida bunday holatlarga butunlay chek qo'yildi va u o'tmishga aylandi.

Xalqaro tajribalarga ko'ra umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan ishlab chiqarish tuzilmalarining uzviy aloqadorligini chuqurlashtirish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kasb ta'limi nazariyasi va amaliyoti tendensiyasini yanada rivojlantirishda innovatsion kasbiy salohiyat elementlarining uyg'unligi va uzviyligini ta'minlash asosida ta'limning integrativ tashkiliy funksiyasini yanada kengaytirish, ta'lim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish kabi integratsion jarayonlar muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-42-son "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedrasini hamda Surxondaryo viloyati kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda professional ta'lim sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etish, joylarda professional ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va amalga oshirish, professional ta'lim tizimi uchun o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini jalb etish, professional ta'lim tizimi xodimlarini ilmiy izlanishlar olib borishga yo'naltirish hamda ularni qo'llab-quvvatlash, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari amaliyotlarini ish beruvchi korxonaga, tashkilot va muassasalarda tashkil etishning kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda bu borada ish beruvchilar bilan xamkorlikni rivojlantirish hamda

professional ta'lim bilan birgalikda ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish, o'quvchilarni vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammolariga bag'ishlangan onlayn seminar tashkil etildi.

O'qituvchi ijodiy qobiliyatlarining manbai pedagogik tajribadir. Uning ilg'or tajriba konsepsiyasida o'z vazifasiga ijodiy munosabati o'quvchilarni tarbiyalashda yangi samarali yo'l va vositalarni izlash va ulardan foydalanishida namoyon bo'ladi. O'z sohasining yetuk o'qituvchisi nafaqat bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanishi, balki ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini o'rganishi muhim hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar orqali ta'lim jarayoniga yangi sifat o'zgarishlari kiritiladi, natijada o'quvchining berilgan mavzuni tushunib olishi va eslab qolishi osonlashadi. Ilg'or pedagogik tajriba shunchaki mehnatning bir ko'rinishi emas, balki kezi kelganda o'qituvchining uslubiga aylanib, u orqali o'qituvchi tarbiya va ta'lim jarayonida yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik jarayon samaradorligining muhim shartidir. Aynan shuning uchun ham bo'lajak pedagoglar pedagogik texnologiya va ta'lim texnologiyasining ilmiy asoslaridan foydalana olishlari zarur.

Bizga ma'lumki, taraqqiyot va yuksalishlarni ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya hamda innovatsion jarayonlarsiz tasavvur etish qiyin. Innovatsiya, innovatsion markazlar, innovatsion muhit, uning shakllanishi, rivoji bilan bog'liq texnologiya hamda qonuniyatlar borasida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor bevosita rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlash joizdir. Shu bois ham davlat shaxsni shakllanishi va kamol topishida muhim ahamiyatga ega bir qator vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga oladi. Shaxsni ta'lim olishi bepul ta'minlanishi masalasi asosiy qomusimizning 41 - moddasida ham belgilab qo'yilgan. Chunki millat bilimining sifat darajasi mamlakatni kelgusidagi strategik rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Millat bilimining darajasi esa ta'lim xizmati natijasida shakllanadi. Mamlakatning dunyo bozoridagi raqobatbardoshligi millatning intellektual va ilmiy potentsiali darajalariga chambarchas bog'liqdir.

Shu bois davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining negizida ta'limga muhim ahamiyat berib kelinmoqda. Ta'lim olish bo'yicha davlat tomonidan yaratilgan shartsharoit, imkoniyatlar asosida shaxsning shakllanishi, kamol topishi va o'z maqsad hamda manfaatlarini ruyobga chiqarilishini ta'minlashi:

- davlatning shaxsni konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish borasidagi vazifasi ijrosini ta'minlaydi;

- shaxsning davlat, jamiyat va o'zi

uchun foydali sub'ekt sifatida shakllanishiga;

- jamiyat a'zosi sifatida shaxsda davlat va xalqning umumiy manfaatlari asosida birlashish immunitetini paydo bo'lishiga;

- oilani moddiy jihatdan ta'minlash va oila a'zolarini jamiyat hamda davlat uchun zarur sub'ekt sifatida shakllantirishda ishtirok etishi kabi bir qator vazifalar ijrosi samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun ta'lim sifati va uni shakllantirishni doimiy ravishda takomillashtirib borish ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan ta'lim va tarbiya, uni tashkil etish hamda huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI". -Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son.
3. Новиков А.М., Д.А. Новиков, «Как оценивать качество образования?», www.anovikov.ru, (Муаллиф таржимаси).
4. Кац А.М. www.mathnet.ru/at13796автор: АМ Кац. Теория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катарактом. А. М. Кац. Центральный научно-исследовательский дизельный. 5. <https://xs.uz/uz/post/olij-talimda-klaster-va-integratsiya-cifat-hamda-raqobatni-taminlajdi>